

UDC: 346.6(045)(575.1)

TO'LOVGA QOBILIYATSIZLIK VUJUDGA KELISHIGA ASOS BO'LADIGAN TALABLAR: PUL MAJBURIYATLARI VA MAJBURIY TO'LOVLAR

Xudaybergenov Behzod Baxtiyorovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti doktoranti,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)
ORCID: 0000-0001-5701-0785
e-mail: xudaybergenovbexzod@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada to'lovga qobiliyatsizlik holati vujudga kelishini aniqlash maqsadida kreditorlar tomonidan bildiriladigan barcha talablar tizimlashtirilgan. Mazkur talablar pul majburiyatlari va majburiy to'lovlar sifatida ikki toifaga ajratilib, ularning tarkibiga qaysi qarzdorliklar kirishi batafsil yoritilgan. "Pul majburiyatlari" kategoriyasining mohiyatini yoritishda fuqarolik huquqi va mehnat huquqi normalari o'zaro qiyoslangan, "majburiy to'lovlar" tushunchasining mazmuni esa soliq qonunchiligi normalariga tayangan holda ochib berilgan. Tahlil natijasida to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi qonunchilik uchun maqbul bo'lgan, aniq va sodda kreditorlarning talablar ro'yxati shakllantirilgan. Shuningdek, bankrotlik to'g'risidagi ishni qo'zg'atishda qaysi talablar inobatga olinishi lozimligi, bu boradagi xorijiy davlat tajribasi, bartaraf etish lozim bo'lgan muammoli holatlar alohida o'rganilgan. Bankrotlik to'g'risidagi ishni qo'zg'atish faqat birlamchi talablarga tayanilishi, ikkilamchi talablar (neus-toyka, jarima, kompensatsiya va rag'batlantirish summolari) ishni qo'zg'atishga asos bo'lmasligi haqida xulosalarga kelingan. Bundan tashqari, tadqiqot davomida ayrim davlatlar qonunchiligida qo'llaniladigan reabilitatsiya ishini qo'zg'atishga asos bo'ladigan talablar, ayniqsa, shaxsiy munosabatlardan kelib chiqadigan va intellektual faoliyat bilan bog'liq talablarning o'rni masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: to'lovga qobiliyatsizlik, bankrotlik, kreditor, qarzdor, reabilitatsiya, pul majburiyatlari, majburiy to'lovlar, asosiy qarz.

ТРЕБОВАНИЯ ПРИ УСТАНОВЛЕНИИ НЕПЛАТЕЖЕСПОСОБНОСТИ: ДЕНЕЖНЫЕ ОБЯЗАТЕЛЬСТВА И ОБЯЗАТЕЛЬНЫЕ ПЛАТЕЖИ

Худайбергенов Бехзод Бахтиёрович,
доктор философии по юридическим наукам (PhD),
докторант Ташкентского государственного
юридического университета

Аннотация. В этой статье систематизированы все требования, предъявляемые кредиторами, в процессе установления неплатежеспособности. Отмечено, что эти требования делятся на две категории: денежные обязательства и обязательные платежи, и подробно описано, какие долги входят в их состав. При освещении сущности категории «денежные обязательства» взаимно сопоставляются нормы гражданского и трудового права, также раскрывается содержание понятия «обязательные платежи» в соответствии с нормами налогового законодательства. В результате проведенного анализа сформирован перечень четких и простых требований кредиторов, соответствующий законодательству о банкротстве. Также отдельно были изучены критерии требований, учитываемых при инициировании дела о банкротстве, опыт зарубежных стран в этом вопросе, а также проблемные ситуации, которые необходимо

разрешить. Был сделан вывод о том, что возбуждение дела о банкротстве должно основываться только на первичных требованиях, вторичные требования (неустойка, штрафы, суммы компенсаций и поощрений) не должны быть основанием для возбуждения дела. Кроме того, особое внимание в ходе исследования уделено вопросу о роли требований, вытекающих из личных отношений, и требований, связанных с интеллектуальной деятельностью, которые станут основой для возбуждения дела о реабилитации, которая используется в законодательстве некоторых государств.

Ключевые слова: неплатежеспособность, банкротство, кредитор, должник, реабилитация, денежные обязательства, обязательные платежи, основной долг.

CLAIMS THAT LEAD TO INSOLVENCY: MONETARY OBLIGATIONS AND MANDATORY PAYMENTS

Khudaibergenov Behzod Bakhtiyorovich,

Doctoral Student of Tashkent State University of Law,
Doctor of Philosophy in Law (PhD)

Abstract. This article systematizes all the claims imposed by creditors in order to determine the occurrence of an insolvency situation. These claims are divided into two categories: monetary obligations and mandatory payments, and the debts included in them are described in detail. In highlighting the essence of the category "monetary obligations", the norms of civil law and labor law are mutually compared, and the content of the concept of "mandatory payments" in accordance with the norms of tax legislation is also revealed. As a result of the analysis, a list of clear and simple creditors' claims has been formed, which is acceptable at the bankruptcy legislation. Also the requirements that should be taken into account when initiating a bankruptcy case and the experience of a foreign state was studied in this regard, as well as problematic conditions that need to be eliminated. It was concluded that the initiation of a bankruptcy case should be based only on primary claims; secondary claims (non-payment, fines, amounts of compensation and incentives) should not be the basis for the initiation of the case. In addition, in the course of the study the question of the role of requirements arising from personal relationships and requirements related to intellectual activity, which will become the basis for initiating a rehabilitation case, which is used in the legislation of some states was also considered.

Keywords: insolvency, bankruptcy, creditor, debtor, rehabilitation, monetary obligations, mandatory payments, main debt.

Kirish

Qarzdorga nisbatan bankrotlik to'g'risidagi ishning qo'zg'atilishi uning majburiyatlari bekor bo'lishini anglatmaydi, kreditorlik va debitorlik qarzlari o'z dinamikasini saqlaydi va qarzdor fuqarolik muomalasi ishtirokchisi bo'lib qolaveradi. Biroq qarzdorning keyingi moliya-xo'jalik faoliyati to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi qonunchilik bilan belgilangan qoidalarga bo'ysunishi lozim. Ushbu qoidalarda kreditor, kontragentlar, uchinchi shaxslar, investorlar, davlat organlarining manfaatlari alohida nazarda tutilgan bo'ladi.

Eng avvalo, shuni ta'kidlash o'rinli ki, qarzdorga nisbatan bildiriladigan talablar fuqarolik, mehnat, oila, soliq, moliya, ma'muriy va boshqa munosabatlardan kelib chiqadi. Shuning uchun bankrotlik to'g'risidagi ishni qo'zg'atish shartlari va tartiblari har doim bahs-munozaralarga sabab bo'lib kelgan. Ayniqsa, qarzdorlik summalarining miqdori va majburiyatlarni bajarmaganlik muddatlari, qaysi subyektlar ishni qo'zg'atishga vakolatli bo'lishi kerakligi, kimlarga nisbatan ishni qo'zg'atish mumkinligi, shuningdek, qanday qarzlari bankrotlik ishini qo'zg'atishga asos bo'lishi kabi masalalar

ilmiy tadqiqotlarda ko'plab tilga olinadi va bu holatlar mavzuning nihoyatda dolzarbligini ko'rsatadi.

Muammoning ilmiy asoslantirish zaruriyati yana shu bilan izohlanadiki, huquqshunos olim E. Vakkari to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi qonunchilik bilan qarzlarni birlashtirilishi, kreditorlar o'z talablariga kollektiv talablar sifatida qarashi va bu kreditorlarning maksimal farovonligini ta'minlashga xizmat qilishini yozadi [1, 285-312-b.]. Bankrotlik ishini qo'zg'atish, bir tomondan, tadbirkorlik subyekting huquq layoqati bekor bo'lishiga olib keladi, deb hisoblanadi; ikkinchi tomondan, ushbu ish qarzdorlarni qo'llab-quvvatlash, ularga yengillik berishga qaratilgan jarayon sifatida e'tirof etiladi. Masalan, ayrim davlatlarda sanatsiya va bankrotlik jarayonlari alohida qonunlar bilan tartibga solinadi yoki suda mazmunan bir-biridan farq qiluvchi ikki xil ish ko'riladi, bu esa ularning har biri uchun ishni qo'zg'atish shartlari va qoidalarini alohida ishlab chiqishni taqozo qiladi.

Masalaga boshqa tomondan yondashsak, davlatlar tomonidan tan olingan to'lovga qobiliyatsizlik rejimlari ham ishni qo'zg'atish shartlarini ishlab chiqish va qo'llashga bevosita ta'sir qilgan va bu ko'plab yondashuvlar paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Agar to'lovga qobiliyatsizlik rejimi ko'proq kreditorlar manfaatlarini ifodalashga qaratilgan bo'lsa, u holda kreditorlarga ishni qo'zg'atish tashabbusi bilan chiqish borasida ko'proq vakolatlar beriladi. Agar to'lovga qobiliyatsizlik rejimi ko'proq qarzdorni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bo'lsa, unda qarzdorni himoya qilish va unga preferensiya berishga qaratilgan normalar qonunchilikda belgilanadi.

Material va metodlar

Tadqiqotning asosiy mazmuni – qarzdor to'lovga qobiliyatsizlik vujudga kelishiga sabab bo'luvchi qarzdorliklarni aniqlash va bankrotlik ishida qaysi talablar inobatga olinishi kerakligini ko'rsatishdan iborat. Umuman olganda, dunyo tajribasida bu bora-

da yagona yondashuv yoki konsepsiyaning mavjud emasligi tahlil qilinayotgan masala – to'lovga qobiliyatsizlikni aniqlash va bankrotlik ishini qo'zg'atish asoslariga bo'lgan qiziqishni yanada oshiradi. Shu bilan birga, milliy huquq tizimi hamda qonunchilik uchun muayyan tavsiya va xulosalar ishlab chiqish zaruriyatini vujudga keltiradi. Ushbu ilmiy tadqiqot ishi huquqshunos olimlarning nazariy qarashlari, xorijiy davlatlar qonunchiligi, tegishli milliy qonun hujjatlari tahlili va sud amaliyoti materiallariga tayangan holda yozilgan.

Mavzuning batafsil mazmunini ochib berishda amaldagi qonun hujjatlari normalari o'zaro taqqoslanadi va normalarni sharhlash orqali maqbul yechimga kelinadi. Shuningdek, ko'rilayotgan bankrotlik ishlarida ko'plab korxonalarning bankrot bo'layotganligi, talablarni tizimlashtirish va muvofiqlashtirish lozimligini ko'rsatmoqda.

Qo'llanilgan metodlar sifatida qiyosiy, induksiya va deduksiya metodlarini ko'rsatish mumkin. Jumladan, to'lovga qobiliyatsizlikni tartibga solishga doir normativ hujjatlar o'zaro taqqoslanadi, milliy va xorijiy davlatlar qonunchiligi normalari solishtiriladi. Har bir kreditorning talabi alohida tahlil qilingan holda, ularning ishni qo'zg'atishda inobatga olinish va olinmaslik masalalari yoritiladi.

Tadqiqot natijalari

Ilmiy xulosa va takliflar to'lovga qobiliyatsizlik sohasida yuridik fan, yuridik ta'lim, qonun ijodkorligi va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot obyektni tavsiflovchi asosiy ko'rsatkich 2021-yil davomida ko'rilgan 9.994 ta bankrotlik ishida 9.376 tasi bankrot deb topilganligi bilan izohlanadi. Korxonalarni sog'lomlashtirish ko'rsatkichlari kutilganidan past darajada, bu esa qarzdorga nisbatan qo'yiladigan talablar masalasiga alohida e'tibor qaratish lozimligini bildiradi (O'zbekiston Respublikasi Oliy sudidan olingan ma'lumot).

Olib borilgan ilmiy izlanishning samaradorligi va haqqoniyligi tahlilida amal-

dagi O'zbekiston Respublikasi "Bankrotlik to'g'risida"gi Qonuni va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek, to'lovga qobiliyatsizlik huquqi uchun muhim burilish bo'lishiga xizmat qilgan Harakatlar Strategiyasini alohida ta'kidlash o'rinlidir.

To'lovga qobiliyatsizlik munosabatlarini tartibga solishga doir islohotlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasining "Biznes yuritish" yillik hisobotida O'zbekiston Respublikasining reytingini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi, "Bankrotlik taomillarini yanada soddalashtirish va sud boshqaruvchilari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlar bilan chambarchas bog'liq.

Bankrotlik ishini qo'zg'atish shartlarini belgilash uchun dastlab qarzdor to'lovga qobiliyatsizligining vujudga kelish asoslarini aniqlash muhimdir. Chunki bankrotlik ishini qo'zg'atish uchun qarzdor, albatta, to'lovga qobiliyatsiz va kreditorlar talablarini qanoatlantira olmayotgan bo'lishi kerak. Aslini olganda, to'lovga qobiliyatsizlik har qanday qarzdorlik bartaraf qilinmaganda kelib chiqishi mumkin. Qanday shakldagi qarzdorlik bo'lishidan qat'i nazar, xoh shartnomalarni bajarmaslik oqibatida kelib chiqqan bo'lsin, xoh xodimlarga to'lanishi lozim bo'lgan qarz bo'lsin, qarzdor shaxs ularni bartaraf eta olmayaptimi, demak, qarzdor to'lovga qobiliyatsizdir. Biroq to'lovga qobiliyatsizlik paydo bo'lishiga sabab bo'lgan qarzdorliklar ko'lamini aniqlash va ularni tizimlashtirish nafaqat ishini qo'zg'atish shartlarini belgilash, balki to'lovga qobiliyatsizlik bilan bog'liq boshqa munosabatlarni (subsidiar javobgarlik, bitimlarni haqiqiy emas deb topish, talablarni qanoatlantirish navbatlarini belgilash va h. k.) huquqiy tartibga solish va tegishli huquqiy normalarni ishlab chiqishda juda muhim ahamiyatga ega.

To'lovga qobiliyatsizlik holati xususiy va ommaviy munosabatlardan kelib chiquvchi qarzdorliklar bartaraf etilmaganda vujudga

keladi, desak turli huquq sohalari kesishuvi va qarama-qarshiliklarini bartaraf etish nisbatan oson bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 14-avgustdagi 224-sonli qarori bilan tasdiqlangan Soxta bankrotlik, bankrotlikni yashirish va qasddan bankrotlikka olib kelish alomatlarini aniqlash qoidalarining 2-bandida ko'ra, to'lovga qobiliyatsizlik – qarzdorning pul majburiyatlari bo'yicha kreditorlarning talablarini qondirish va (yoki) majburiy to'lovlar bo'yicha o'z majburiyatini bajarishga qodir emasligi Ushbu ta'rifda "pul majburiyatlari" va "majburiy to'lovlar" kategoriyalariga urg'u berilgan va ular to'lovga qobiliyatsizlikning vujudga kelish manbalari yoki asoslari sifatida ko'rsatilgan. Shu bois tahlil ikki tushunchaning mohiyatini yoritishdan boshlanadi.

Pul majburiyati

Lug'atlarda pul majburiyatlari har qanday to'lovlarni o'z ichiga olishi nazarda tutilgan va to'lovga qobiliyatsizlikning asosiy manbasi sifatida ko'rsatilgan [2, 315-b.]. Fuqarolik huquqida pul majburiyati deganda, bir shaxsning (qarzdorning) boshqa shaxsga (kreditorga) pul summasini to'lash majburiyati va kreditorning qarzdordan pul summasini to'lashni talab qilish huquqida pul majburiyati Novoselova pul majburiyatining muhim belgisi sifatida pulni to'lash (to'lov) lozimligi va pul qarzdor tomonidan kreditorga o'tkazilishini ta'kidlaydi [3, 240-b.]. Sud amaliyotida dastlabki pul majburiyatlari sifatida tovar, ish yoki xizmat, yetkazilgan zarar va asossiz boyish natijasida haq to'lash tushunilsa, ikkilamchi pul majburiyatiga ziyonni qoplash, qarz predmetini almashtirganda, kompensatsiya qilish, neustoyka to'lash, o'zgalar pul vositalaridan foydalanganlik uchun foizlarni to'lash kiradi [4, 155-b.]. Ushbu fikrlardan pul majburiyati bevosita pulni to'lash bilan bog'liqligi, uning zamirida pul yotishi ayon bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 234-moddasida "majburiyat"

tushunchasiga berilgan ta'rifda bir shaxs (qarzdor) boshqa shaxs (kreditor) foydasi-ga muayyan harakatni amalga oshirish, chunonchi, mol-mulkni topshirish, ishni bajarish, xizmatlar ko'rsatish, pul to'lash va hokazo yoki muayyan harakatdan o'zini saqlashga majbur bo'lishi ko'rsatilgan. Ushbu norma qarzdorning majburiyati faqat pulni to'lash, ya'ni pul majburiyatidan iborat bo'lmasligi, undan tashqari qarzdor kreditor oldida mol-mulkni topshirish kabi boshqa majburiyatlarga ega bo'lishi mumkinligi-ni anglashga imkon beradi. Amalda ko'plab masalalar pul ekvivalentini to'lash majbu-riyati bilan bog'liq. Ammo majburiyatning asl predmeti ashyolar (narsalar) bo'lgan ho-latlar yo'q emas. Masalan, bitimning haqiqiy emasligi natijasida olingan narsalarni qay-tarib berish yoki majburiyatni natura shak-lida bajarish haqidagi restitutsion talablar. Pulsiz majburiyatni pulga aylantirish fuqa-rolik huquqi qoidalari asosida amalga oshi-rilishi mumkin, agar olingan narsani aslicha (shu jumladan, olingan narsa mol-mulkdan foydalanish, bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat bilan ifodalanganda) qaytarib berish mumkin bo'lmasa. Shu bilan birga, bu holat-da quyidagi prinsipga tayaniladi: pulsiz maj-buriyat pul majburiyatiga aylantirilganda, u zararni qoplash haqidagi talabga o'zgara-di. Kelishuvga asosan, tomonlar har qanday vaqtda majburiyatni natura shaklida ba-jarishdan pul ekvivalenti bilan to'lash maj-buriyatiga o'tishlari mumkin. Bunday holda bitim yangilangan (novatsiya) hisoblanadi, chunki majburiyatni bajarish usuliga o'zgar-tirish kiritilmoqda. Garchi pulsiz majbu-riyatni pul majburiyatiga o'tkazish mumkin bo'lsa-da, kreditorning majburiyatni aslicha bajarishni talab qilishi va bu haqda sudga murojaat qilishi uning o'zida qoladi. Pulsiz majburiyatlar (mulkiy majburiyatlar) ish qo'zg'atilgandan so'ng kreditorlar talablari reestriga kiritiladi va pulsiz majburiyatlar bo'yicha talablar bankrotlik ishidan alohida ko'rib chiqilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik ko-deksining 328-moddasida qarzdor ash-yoni tayyorlash va kreditorga mulk qilib xo'jalik yuritish yoki operativ boshqarish-ga topshirish yoxud ashyoni foydalanish uchun kreditorga berish yoxud uning uchun muayyan ishni bajarish yoki unga xizmat ko'rsatish majburiyatini bajarmagan taqdir-da, kreditor, agar qonunchilik, shartnoma yoki majburiyatning mohiyatidan boshqa-cha tartib anglashilmasa, uchinchi shaxslar-ga majburiyatni oqilona muddatda oqilona baholarda ijro etishni topshirish yoinki uni o'z kuchlari bilan bajarish hamda qarzdordan qilingan zarur xarajatlar va boshqa zararni to'lashni talab qilishga haqli ekanligi ko'rsa-tilgan.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, to'lovga qo-biliyatsizlik bilan bog'liq munosabatlarda "to'lov" kategoriyasi markaziy o'rinni egallay-di va bu yerda to'lovni amalga oshirmaganlik fakti yoki to'lovning to'xtashi asosiy mezon qilib olinadi. Chunki mahsulotni topshirma-ganlik, xizmat ko'rsatmaganlik yoki ishni ba-jarmaganlik uchun qarzdorni to'lovga qobili-yatsiz deya olmaymiz. Qarzdorning iqtisodiy holatini baholash va majburiyatni bajara olish layoqatiga aniqlik kiritish maqsadida har qanday pulsiz majburiyat pul majburiyatiga aylanishi kerak. Agar ushbu aylantirilgan pul majburiyatlari muayyan vaqt davomida baja-rilmasa, keyin qarzdorni to'lovga qobiliyatsiz deb hisoblashimiz mumkin. Majburiyat qan-cha muddat davomida bajarilmaganlik ma-salasiga kelsak, u qarzdorning yuridik shaxs yoki jismoniy shaxs ekanligi, alohida toifadagi qarzdorlarga mansubmi yoki yo'qligidan kelib chiqib belgilanadi.

Qarzdorga nisbatan imtiyozlar berish yoki bankrotlik ishini qo'zg'atishda to'lovning to'xtaganlik omili muhim ahamiyat kasb eta-di. Shu bois mahsulot yetkazib berilmaganda yoki ish bajarilmaganda yoxud xizmat ko'rsa-tilmaganda, ularni zararni qoplash talabi, ya'ni pul majburiyatiga aylantirish talab etila-di.

Bundan tashqari, kreditorda boshqa mulkiy talablar (pulsiz majburiyatlar) mavjud bo'lganda, uni pullik to'lovga almashtirish maqsadga muvofiq va undan so'ng qarzdorga pul majburiyatlari bo'yicha talablar qo'yishi mumkin. Qarzdorning har qanday dastlabki majburiyatini pulga "transformatsiya" qilish imkoniyati mulkiy muomala ishtirokchilari uchun o'ziga yarasha kafolat hisoblanadi va iqtisodiy faoliyat barqarorligini ta'minlaydi. Shuningdek, yuridik adabiyotlarda pul majburiyatlariga javobgarlikdan ozod qilish asosi sifatidagi yengib bo'lmas kuch oqibatida bajarishning imkonsizligi haqidagi umumiy qoidalar qo'llanilmasligi ta'kidlanadi [5, 62-b.].

Demak, xususiy munosabatlarda to'lovga qobiliyatsizlik pul majburiyatlaridan kelib chiqadi, agar bajarilishi lozim bo'lgan majburiyat pulsiz xarakterga ega bo'lsa, uni, albatta, pul majburiyati shakliga keltirish lozim.

O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 24-apreldagi "Bankrotlik to'g'risida"gi Qonuni (keyingi o'rinlarda Bankrotlik to'g'risidagi qonun) 3-moddasiga ko'ra, pul majburiyati – qarzdorning fuqarolik-huquqiy shartnomasi bo'yicha hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa asoslarga ko'ra kreditorga muayyan pul summasini to'lash majburiyatidir. Ushbu normada pul majburiyatlari aynan qanday qarzdorliklarni o'z ichiga qamrab olishi to'liq ko'rsatilmagan. Bu esa manfaatdor shaxslarning to'g'ri protsessual harakat qilishlariga imkon bermaydi va to'lovga qobiliyatsizlik holatini isbotlash uchun u yoki bu majburiyatni pul majburiyati deb tan olishda nizoli vaziyatni yuzaga keltiradi.

Fuqarolik-huquqiy shartnoma – fuqarolik huquqlari va burchlarini vujudga keltirish, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan ikki yoki bir necha shaxsning kelishuvidir. Bunday shartnomalar mazmuniga ko'ra mol-mulkni berish (oldi-sotdi, hadya), ish bajarish (pudrat) yoki xizmat ko'rsatish (sug'ur-

ta, yuk tashish) haqida bo'lishi mumkin. Hozirda amalda qo'llanilayotgan fuqarolik qonun hujjatlarida shartnoma faqat kelishuv sifatida e'tirof etiladi. Ammo adabiyotlarda shartnomaning mohiyatini belgilashda yangi tushunchalar kirib kelganligi ta'kidlanadi. Niderlandiya Fuqarolik kodeksida (3, 3:35-moddasi) shartnoma deganda, nafaqat o'zaro kelishuv, balki kontragentga berilgan va'da ham tushuniladi, shuningdek, ushbu qoida Yevropa shartnomalar huquqi prinsiplari shaklidagi nufuzli hujjatga unifikatsiya qilingan (2:101, 2:107-moddalari). Bir qator G'arb mamlakatlarida shartnoma konsepsiyasining qonuniy ta'riflarini "o'zgartirish"ga urinishlar sud orqali amalga oshirilgan, hatto shartnoma konsepsiyasi "va'da"dan oldingi bosqich – kelishuvga erishish niyatini ham qamrab oladi [6, 4-b.].

Qonunda pul majburiyatlariga berilgan ta'rifga e'tibor qaratsak, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa asoslarga ko'ra ham pul majburiyati vujudga kelishi mumkin. Bular, jumladan, fuqarolik huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan to'lanadigan foizlarni hisobga olgan holda, kredit summalari, asossiz boylik orttirish summalari, kreditorning mol-mulkiga zarar yetkazilishi natijasida yuzaga kelgan qarz, qarzdor qaysi fuqaroning hayoti yoki sog'lig'iga zarar yetkazilganligi uchun javobgar bo'lsa, ayni shu fuqaroga beriladigan to'lovlar, mualliflik shartnomalari bo'yicha to'lanishi kerak bo'lgan haq summasi, aliment undirish o'z ishtirokidan kelib chiqadigan majburiyatlar bo'yicha qarzdor yuridik shaxsning muassislari (ishtirokchilari)ga beriladigan haq, neustoyka (penya, jarima), kechiktirilgan to'lov uchun foizlar, boy berilgan foyda ko'rinishidagi zararlar va boshqa mulkiy zararlar kiradi.

Shu o'rinda mehnat munosabatlaridan kelib chiquvchi talablarni pul majburiyati sifatida e'tirof etish muayyan tahlilni talab qiladi. Mehnat munosabatlaridan kelib chiqadigan talablarga ish haqi, ishdan bo'shatish nafaqasi, muddatli mehnat shartnomasi muddatidan

oldin bekor qilinganda neustoyka, ta'tillar uchun to'lanadigan haq, foydalanilmagan ta'tillar uchun to'lanadigan kompensatsiya, ish bilan bog'liq xarajatlarning kompensatsiyasi, xodimga yetkazilgan zararlar uchun to'lovlar, qo'shimcha to'lovlar, ustamalar, rag'batlantirish tarzidagi to'lovlar, normal ish vaqtidan chetga chiqqan holda bajarilgan ishlar uchun oshirilgan miqdorda to'lanadigan haqlar, rayon koeffitsiyentlari kiradi (Mehnat kodeksining 104-, 109-, 112-, 148-, 151-, 153-, 155, 164-, 170-173-, 180-, 187-197-, 275-moddalari).

“Bankrotlik to'g'risida”gi qonunda mehnat munosabatlaridan kelib chiquvchi talablar haqida ko'plab normalar uchraydi. Mazkur qonunning 10-, 37-, 59-, 63-, 68, 100-, 115-, 133-, 134-, 149-moddalarida “ish haqi bo'yicha qarzni to'lash talabi”, “mehnatga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan talablar”, “qarzdorning mehnatga oid munosabatlardan va ularga tenglashtirilgan huquqiy munosabatlardan kelib chiquvchi to'lovlar”, “mehnatga haq to'lashga oid talablar” kabi birikmalar mazmun jihatdan bir xil bo'lsa-da, turlicha bayon qilingan. Ushbu birikmalarni umumiy ma'noda “mehnat munosabatlaridan kelib chiqadigan talablar” deb ko'rsatish maqsadga muvofiq.

Qarzdorga nisbatan bildiriladigan bunday talablarga sun'iy ravishda alohida ta'rif berish yoki pul majburiyatlaridan tashqarida ularning o'rnini aniqlashga zarurat yo'q, chunki ular ham “imtiyozli” talablar hisoblanadigan hayot va sog'liqqa yetkazilgan zarar uchun javobgarlikka o'xshash talabdir. Hayot va sog'liqqa yetkazilgan zarar, ma'naviy ziyonni qoplash, ish haqi va kompensatsiyalarni undirish fuqarolar ijtimoiy himoyasini taxmin qilishga xizmat qiladigan ommaviy manfaatlar elementlarini aks ettirsa-da, ushbu talablar xususiy manfaatlarga qurilgan [7, 29-b.].

L.A. Novoselova yozadiki, qonunda fuqarolik huquqi normalarini mehnat munosabatlarini ishtirokchilariga qo'llash haqidagi maxsus ko'rsatmaning mavjud emasligi –

mehnat shartnomasi bo'yicha ish beruvchi va xodim o'rtasidagi munosabatlar fuqarolik-huquqiy munosabat deb hisoblanmasligi va maxsus qonunchilik tarmog'i bilan tartibga solinishini anglatmaydi [8, 39-b.]. Shuningdek, M.I. Braginskiy va V.V. Vitryanskiy ham fuqarolik va mehnat shartnomalarining o'zaro nisbati masalasi ochiq qolayotganligi, kelajakda mehnat huquqining fuqarolik bilan birlashishi hamda bu xususiy huquqni tizimlashtirishda muhim qadam bo'lishini yozishadi [9, 22-b.].

Yuqoridagi fikrlar mehnat munosabatlaridan kelib chiqadigan talablarda xususiy manfaatlar ustun bo'lishi, ommaviylik qisman namoyon bo'lishini ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, mehnat munosabatlari ham bevosita shartnomaga tayanilishi, huquq va majburiyatlar tegishli kelishuvda nazarda tutilgan bo'lishi, shuningdek, fuqarolik qonun hujjatlarining mehnat munosabatlarga qo'llashni cheklaydigan to'g'ridan-to'g'ri normaning mavjud emasligi mehnatga haq to'lash va kompensatsiyalarni pul majburiyati sifatida bayon qilish imkonini beradi. Demak, mehnatga haq to'lash va kompensatsiyalarni qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa asoslarga ko'ra vujudga keladigan pul majburiyati degan xulosaga kelindi.

Majburiy to'lovlar

“Bankrotlik to'g'risida”gi qonunning 3-moddasiga ko'ra, majburiy to'lovlar deganda, davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalariga to'lanadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar tushuniladi.

L.B. Xvan soliqlarning quyidagi xususiyatlarini ajratib ko'rsatadi: a) soliqlarni belgilash huquqi faqat davlatning qonun chiqaruvchi oliy organi – parlamentga berilgan; b) soliqni fuqaro emas, mulkdor to'laydi; d) soliq davlat byudjetiga daromad olish uchun belgilanadi; e) soliq to'lash majburiy xususiyatga ega [10, 19-b.].

Pul majburiyatlari qatorida majburiy to'lovlarni bajarmaganlik uchun ham to'lovga qobiliyatsizlik paydo bo'ladi. Pul majburi-

yatlari kabi majburiy to'lovlar ham tegishli normativ hujjat bilan tizimlashtirilmagan, turli qonun hujjatlarida tarqoq shaklda bayon qilingan (Soliq kodeksi, Davlat boji to'g'risidagi qonun va boshqa qonun hujjatlari). Ayniqsa, ularning turlari hozirgi kunda aniq normativ hujjat bilan tartibga solinmagan. Balki ularni tizimlashtirish faqat to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi munosabatlarni tartibga solishda ahamiyatga ega bo'lar.

Soliq kodeksining 16-moddasida soliq O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti yoki davlat maqsadli jamg'armasiga to'lanadigan majburiy beg'araz to'lov tushuniladi. Ushbu "majburiy beg'araz to'lov" birikmasi soliqlarning umumiy ma'noda majburiy to'lovlarning bir shakli degan xulosaga kelishga undaydi. O.M. Mahkamovning ta'kidlashicha, soliq – davlatning qonun chiqaruvchi hokimiyati tomonidan muayyan miqdorlarda va bir taraflama tartibda belgilangan, vakolatli davlat organlari tomonidan jismoniy (daromad) va yuridik shaxslardan (foйда) muntazam ravishda undiriladigan, respublika va mahalliy byudjetga yo'naltiriladigan, qaytarib berilmaydigan va beg'araz xususiyatga ega bo'lgan majburiy pul to'lovidir [11, 20-b.]. Mazkur moddaning o'zida yig'imlar ham majburiy to'lovlar hisoblanishi ko'rsatilgan. Soliqlar o'zining beg'arazligida ifodalansa, yig'imlar uni to'lovchi shaxsga nisbatan vakolatli organ yoki uning mansabdor shaxsi tomonidan yuridik ahamiyatga ega harakatlarni amalga oshirishni o'zida aks ettiradi.

O'zbekiston Respublikasi "Davlat boji to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasida davlat boji yuridik ahamiyatga molik harakatlarni amalga oshirganlik va (yoki) bunday harakatlar uchun vakolatli muassasalar va (yoki) mansabdor shaxslar tomonidan hujjatlar berganlik uchun undiriladigan majburiy to'lovdir, deb ko'rsatilgan. Garchi yig'imlar va bojlarga berilgan ta'riflar bir-biriga yaqin bo'lsa-da, ular orasidagi farqlar va xususiyatlarni o'rganish alohida tadqiqot predmeti hisoblanadi. Shunday bo'lsa-da, aytib o'tish

lozimki, yig'im – bu biror-bir faoliyat turini amalga oshirish, biror narsada ishtirok etish yoki undan foydalanish huquqi uchun ko'pincha ijtimoiy-huquqiy tartibdagi xizmat bilan bog'liq holda, yakka tartibda davlat hokimiyati organlari tomonidan undirib olinadigan to'lovdir. Boj ko'pincha muayyan harakatlarni amalga oshirganlik uchun va faqat shunday harakatlarni amalga oshirishga vakolati bo'lgan organ bilan huquqiy munosabatlarga kirishgan shaxslardan undirib olinadi. Soliq kodeksining 17-moddasida yig'imlar va bojlar alohida bayon qilinganligi, shuningdek, yig'imlarning turlari va bojlarni undirish obyektlari qonun hujjatlarida keltirilganiga tayanib, yig'imlar va bojlarni alohida ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiq.

Majburiy to'lovlarning boshqa turlariga moliyaviy sanksiyalar, hisoblangan penylar kiradi.

Ko'p vaqt davomida yuridik adabiyotlarda fiskal talablar ustuvorligi va ularning bankrotlik to'g'risidagi ishda xususiy kreditorlar bilan raqobati haqida bahs-munozaralar bo'lib kelgan. Bankrotlik ishida xususiy shaxslar talablari bilan qiyoslaganda, ommaviy talablarni qanoatlantirishga ustuvorlik berilishi "davlat – to'lovga qobiliyatsiz qarzdorning erk-irodasidan tashqaridagi kreditori (nevolniy kreditor)" konsepsiyasi asosiy argumentlardan biri bo'lib kelgan. "Davlat – to'lovga qobiliyatsiz qarzdorning erk-irodasidan tashqaridagi kreditori" konsepsiyasi to'lovga qobiliyatsiz qarzdorga nisbatan bildiriladigan talablar ierarxiyasini qurishda asosiy model bo'lib xizmat qilgan (Masalan, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Italiya, Ispaniya, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Kanada, AQSh, Meksika, Xitoy, Braziliya, Hindiston va boshqa davlatlar). Shu bois majburiy to'lovlardagi asosiy qarz bilan birga ikkilamchi talablar – penya va jarimalar to'lash to'lovga qobiliyatsiz qarzdordan talab qilingan. Ko'rsatilgan davlatlar asta-sekinlik bilan "nevolniy kreditor" konsepsiyasidan voz kechdi, chunki xususiy kreditorlar ko'proq

foyda olishi va bu yakunda fiskal to'lovlarni qarzdordan emas, balki kreditorlardan yig'ib olishga imkon berar edi [12, 19-b.].

Pul majburiyatlari va majburiy to'lovlarni birlashtirish

Yagona formulirovkani yaratish uchun turli huquq sohalarida qo'llaniladigan kategoriyalardan qochish va to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi munosabatlar mohiyati hamda xususiyatiga tayangan holda, to'lovga qobiliyatsizlik vujudga kelishiga asos bo'luvchi talablar deb belgilash maqsadga muvofiqdir.

Ushbu talablardan kelib chiqib, kreditorlar doirasini ham belgilash mumkin. To'g'ri, ish qo'zg'atilgandan so'ng kreditorlar boshqa mezonlar bo'yicha ham taqsimlanishi mumkin (masalan, garov bilan ta'minlangan va ta'minlanmagan), biroq qarzdorlik vujudga kelish manbalari qaysi shaxslarni kreditor sifatida belgilash imkonini beradi.

To'lovga qobiliyatsizlik huquqidagi "kreditor" tushunchasi fuqarolik huquqidagi kreditorlardan farq qiladi. Uning qamrov doirasini ommaviy munosabatlardan kelib chiquvchi talablar hisobiga kengroq deyish mumkin. Ammo M.V. Telyukina majburiy to'lovlar bo'yicha talablar fuqarolik-huquqiy munosabatlardan emas, ommaviy munosabatlardan kelib chiqishi va majburiy to'lovlarni talab qiluvchi shaxslar kreditor bo'la olmasligini ta'kidlaydi [13, 135-192-b.].

Shu o'rinda ta'kidlash o'rinliki, to'lovga qobiliyatsizlik bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishda turli huquq sohalarini normalari kesishadi va bu holatda tegishli huquq sohasi, shuningdek, uning kategoriyalari, ya'ni na fuqarolik huquqi, na soliq huquqi va na boshqa sohaga ustunlik berib bo'ladi. Aks holda, to'lovga qobiliyatsizlikka doir normalar murakkab va tushunarsiz bo'lib qolishi, mohiyatdan uzoqlashish holatlari vujudga kelishi, bu esa shaxslarning manfaatlari ro'yobga chiqmasdan qolib ketishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, "Bankrotlik to'g'risida"gi qonunning 3-moddasida "kreditor"ga beril-

gan ta'rifda kreditor pul majburiyatlari va (yoki) majburiy to'lovlar bo'yicha talablarga ega shaxs ekanligi ko'rsatilgan. Shu bois kreditorni qarzdordan o'z haqini talab qilish huquqiga ega bo'lgan har qanday shaxs deb tushunish to'g'ri bo'ladi.

Yuqoridagi tahlillarga tayanib, shunday xulosaga kelish mumkinki, to'lovga qobiliyatsizlik vujudga kelishidagi asosiy talablar quyidagilardan iborat:

To'lovga qobiliyatsizlik vujudga kelishiga asos bo'luvchi talablar	
Pul majburiyatlari	Majburiy to'lovlar
<ul style="list-style-type: none"> - tovarlar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlardan kelib chiqadigan qarzdorlik; - to'lanadigan foizlarni hisobga olgan holda kredit summolari; - asossiz boylik orttirish summolari; - kreditorning mol-mulkiga zarar yetkazilishi natijasida yuzaga kelgan qarz; - qarzdorning mol-mulkiga zarar yetkazilishi natijasida yuzaga kelgan qarz; - qarzdorlik; ay shaxs deb tushunish to'g'ri bo'ladi. 	<ul style="list-style-type: none"> - soliqlar; - yig'imglar; - bojlar; - moliyaviy sanksiyalar; - hisoblangan penyalar.
<ul style="list-style-type: none"> - aliment undirish bilan bog'liq talablar; - mehnat munosabatlaridan kelib chiqadigan talablar; - mualliflik shartnomalari bo'yicha to'lanishi kerak bo'lgan haq summasi; - o'z ishtirokidan kelib chiqadigan majburiyatlar bo'yicha qarzdor yuridik shaxsning muassislariga (ishtirokchilari) beriladigan haq; - neustoyka (penya, jarima); - kechiktirilgan to'lov uchun foizlar; - boy berilgan foyda ko'rinishidagi zararlar; - pul majburiyatiga aylantirilgan, dastlabki shakli pulsiz bo'lgan majburiyatlar. 	

Bankrotlik ishini qo'zg'atish asos bo'ladigan talablar

"Bankrotlik to'g'risida"gi qonunning 4- va 5-moddalariga muvofiq, quyidagi pul majburiyatlari va majburiy to'lovlar bo'yicha talablar bajarilmaganda, bankrotlik to'g'risidagi ish qo'zg'atiladi:

agar tegishli majburiyatlar va (yoki) to'lov majburiyatlari yuzaga kelgan kundan e'tiboran uch oy ichida qarzdor tomonidan bajarilmagan bo'lsa, qarzdor shaharni tashkil etuvchi korxona hamda unga tenglashtirilgan korxonalar tomonidan esa – olti oy ichida bajarilmagan bo'lsa;

qarzdorga nisbatan kreditorlar talablari bazaviy hisoblash miqdorining kamida uch yuz baravarini tashkil etsa, qarzdor shaharni tashkil etuvchi korxona hamda unga tenglashtirilgan korxonaga nisbatan bazaviy hisoblash miqdorining kamida besh ming baravarini tashkil etsa, qarzdor yakka tartibdagi tadbirkor yoki yakka tartibdagi tadbirkor maqomini yo'qotgan jismoniy shaxsga nisbatan esa bazaviy hisoblash miqdorining kamida yigirma baravarini tashkil etsa.

Ushbu moddalarda pul majburiyatlari va majburiy to'lovlar umumiy ko'rsatilgan bo'lib, qaysi talablar aynan bankrotlik ishini qo'zg'atishga asos bo'lishi keltirilmagan. Qoidalar faqat qarzdorlik summasi va majburiyatni bajarmaganlik muddatlarini qamrab olgan. Mohiyatan ushbu normalar har qanday talablarning bajarilmasligi korxonaning bankrotlik ishi ochilishiga asos bo'lishini ta'minlaydi. F.Z. Ibratova rivojlangan davlatlar, shuningdek, MDHga a'zo davlatlarning qonunchilik tajribasini inobatga olgan holda, bankrotlik alomatlariga faqat asosiy qarz tushunchasini kiritish lozimligini ta'kidlaydi [14, 26-27-b.].

Bankrotlik to'g'risidagi ish majburiyatni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik oqibatida qo'zg'atiladi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 260-moddasida qarzdor majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan

taqdirda, kreditorga to'lashi shart bo'lgan pul summasi neustoyka hisoblanishi ko'rsatilgan. Shunday ekan, bankrotlik ishini qo'zg'atish ham, neustoyka ham aynan majburiyatni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik oqibatida vujudga keladi. Bir majburiyatning bajarilmasligi ikki xil huquqiy chora qo'llanilishiga olib kelmasligi lozim. Albatta, ushbu holatda bankrotlik to'g'risidagi ish qarzdorga qo'llaniladigan chora sifatida namoyon bo'lmoqda va bu yerda ko'proq qarzdorning bankrot deb topilishi nazarda tutilmoqda. Agar qarzdorga reabilitatsiya taomillari qo'llanilishini ham inobatga oladigan bo'lsak, o'z-o'zidan neustoykani (penya va jarimalar) hisobga olmaslik qarzdorni qo'llab-quvvatlashning asosiy vositalaridan biri bo'lib ko'rinadi. Demak, to'lovga qobiliyatsizlik holatini samarali bartaraf etish uchun ishni qo'zg'atishda neustoykalar inobatga olinmaydi, ishni qo'zg'atishning o'zi majburiyatni bajarish va lozim darajada bajarishni ta'minlash usuli sifatida baholanadi.

Majburiyatni bajarmaganlik uchun ikki xil chora qo'llash nazarda tutilgan bo'lsa, ulardan faqat biri qo'llanilishi haqidagi normalar mavjud. Misol uchun, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining 2007-yil 15-iyundagi "Majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun mulkiy javobgarlik to'g'risidagi fuqarolik qonun hujjatlarini qo'llashning ayrim masalalari haqida"gi 163-son qarorining 3-bandida agar shartnomada aynan bitta majburiyatning buzilishi uchun neustoykani ham jarima, ham penya ko'rinishida to'lash nazarda tutilgan bo'lsa, da'vogar faqatgina bir shakldagi neustoyka qo'llashni talab qilishga haqli ekanligi ko'rsatilgan. Shunga bog'liq ravishda aytish lozimki, bankrotlik to'g'risidagi ishning qo'zg'atilishi neustoykani so'rash talabining bekor bo'lishiga olib keladi.

Qozog'iston Respublikasining "Reabilitatsiya va bankrotlik to'g'risida"gi Qonunida ishni qo'zg'atishda penya, jarima va boy berilgan foyda inobatga olinish yoki olin-

masligi bevosita ko'rsatilmagan, biroq ish qo'zg'atilgandan keyin kreditorlar yig'ilishida ovoz berish jarayonida ushbu talablar hisobga olinmaydi, bunga ham ayrim istisnolar mavjud. Rossiya Federatsiyasining "To'lovga qobiliyatsizlik (bankrotlik) to'g'risida"gi Qonunida to'g'ridan-to'g'ri majburiy to'lovlarni hisoblashda unga jarima (penya) va boshqa moliyaviy sanksiyalar kiritilmasligi, pul majburiyatlarini hisoblashda neustoyka, foizlar, boy berilgan foyda kiritilmasligi ko'rsatilgan. Belarus Respublikasining "Iqtisodiy to'lovga qobiliyatsizlik (bankrotlik) to'g'risida"gi Qonunining 6-moddasida ishni qo'zg'atishda faqat neustoyka hisobga olinmasligi ko'rsatilgan.

Agar bankrotlik to'g'risidagi ishni qo'zg'atishda faqat asosiy, ya'ni birlamchi talablar inobatga olinadigan bo'lsa, neustoyka (barcha huquqiy munosabatlardagi qo'llaniladigan neustoykalar), kechiktirilgan to'lov uchun foizlar, boy berilgan foyda ko'rinishidagi zararlar hisobga olinmaydi.

"Bankrotlik to'g'risida"gi qonun mehnat munosabatlaridan kelib chiqadigan talablar asosida ishni qo'zg'atishni to'g'ridan-to'g'ri taqiqlamaydi. Biroq protsessual jihatdan buni amalga oshirishning imkoni yo'q. Chunki qonunning 39-moddasi birinchi qismida kreditor yuridik shaxsning arizasi uning rahbari yoki vakili, kreditor yakka tartibdagi tadbirkor yoki yakka tartibdagi tadbirkor maqomini yo'qotgan jismoniy shaxsning arizasi esa shu jismoniy shaxsning o'zi yoki uning vakili tomonidan imzolalanadi. Ushbu norma bevosita ariza jismoniy shaxs tomonidan berilishi mumkin emasligini ko'rsatmoqda. Albatta, xodimning ishni qo'zg'atish huquqi qonunchilikda o'z aksini topishi lozim. Mehnat munosabatlarida ish haqi va ishdan bo'shatish nafaqasini to'lash haqidagi talablarga birlamchi talablar deb e'tirof etiladi. Chunki kompensatsiyalar, qo'shimcha to'lovlar, ustamalar, rag'batlantirish tarzidagi to'lovlarning barchasini muayyan sharoit va vaziyatlarda xodimlarga to'lanadigan ikkilamchi to'lovlar deyish mumkin.

Majburiy to'lovlarga keladigan bo'lsak, unda soliq, yig'im va bojlar asosiy qarzlar deb hisoblanadi. Sababi moliyaviy sanksiyalar ham soliqlar va yig'imlar to'lanishini ta'minlashga qaratilgan bo'ladi va soliq qonunchiligida ko'rsatilgan barcha moliyaviy sanksiyalar soliqlar va yig'imlarning o'z vaqtida to'lanishi hamda bu borada huquqbuzarliklarni bartaraf etish maqsadida amalga kiritilgan. Shu bois moliyaviy sanksiyalar asosida bankrotlik ishini qo'zg'atishni maqsadga muvofiq emas deyish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 55-moddasiga ko'ra, hisoblab chiqarilgan (hisoblangan) va belgilangan muddatlarda to'lanmagan soliqlar, shu jumladan, ular bo'yicha bo'nak va joriy to'lovlarning summalari, to'lanmagan moliyaviy sanksiyalar va penyalari soliq qarzi deb e'tirof etilganligi sababli moliyaviy sanksiyalarni to'lamaganlik uchun ham bankrotlik ishlarini qo'zg'atish mumkin bo'lyapti. Biroq yuqorida ta'kidlanganidek, moliyaviy sanksiyalar asosida ishni qo'zg'atishga yo'l qo'yilmaydi.

Shunday talablar borki, ular o'zining shaxsiy munosabatlar bilan bog'liqligi va intellektuallik xususiyati bilan boshqalardan ajralib turadi va ularga talablarni qanoatlantirish navbatida imtiyozlar beriladi. Bunday talablarga qarzdor qaysi fuqaroning hayoti yoki sog'lig'iga zarar yetkazilganligi uchun javobgar bo'lsa, ayni shu fuqaroga beriladigan to'lovlar, aliment undirish bilan bog'liq talablar, mualliflik shartnomalari bo'yicha to'lanishi kerak bo'lgan haq kiradi.

Ayrim davlatlar qonunchiligi qarzdor qaysi fuqaroning hayoti yoki sog'lig'iga zarar yetkazilganligi uchun javobgar bo'lsa, ayni shu fuqaroga beriladigan to'lovlar, mualliflik shartnomalari bo'yicha to'lanishi kerak bo'lgan haq, qarzdor yuridik shaxsning muassislari (ishtirokchilari) ularga berilishi kerak bo'lgan haq asosida bankrotlik ishini qo'zg'atishni taqiqlaydi. (Masalan, Rossiya Federatsiyasining "To'lovga qobiliyatsizlik

(bankrotlik) to'g'risida"gi Qonuni 4-moddasi, Ukrainaning Bankrotlik taomillari bo'yicha Kodeksi 1-moddasi). Belarus Respublikasi "Iqtisodiy to'lovga qobiliyatsizlik (bankrotlik) to'g'risida"gi Qonunining 6-moddasida faqat hayot va sog'liqqa zarar, ma'naviy ziyon bilan bog'liq talablar ishni qo'zg'atishda hisobga olinmaydi, deyilgan. Ammo ushbu talablar birlamchi ahamiyatga egaligi nuqtai nazaridan ishni qo'zg'atishga asos bo'lishi hamda shaxsiy munosabatlar va intellektual faoliyat bilan bog'liq bo'lgan talablar boshqa talablar qatorida inobatga olinishi lozim. Ayniqsa, xodimlarga berilgan ishni qo'zg'atish huquqi xodim maqomiga o'xshash bo'lgan boshqa kreditorlarga ham berilishi to'g'ri bo'ladi. Hatto O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1015-moddasidagi tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulki yo'qligi yoki yetarli emasligi sababli to'lovlarni kapitallashtirish mumkin bo'lmagan hollarda, belgilangan summalar jabrlanuvchiga davlat tomonidan qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda to'lanishi haqidagi norma ham haqni talab qilish huquqidan mahrum etishga asos bo'lmaydi.

Bundan tashqari, amaldagi qonunchilikka ko'ra, bevosita qarzdor faoliyatini ishtirok etadigan va uning faoliyatini nazorat qilib kelgan qarzdor yuridik shaxsning muassislari (ishtirokchilari) ularga berilishi kerak bo'lgan haq yoki dividend asosida bankrotlik ishini qo'zg'ata olmaydi. Sud amaliyotida ta'sischilarning xo'jalik jamiyatlarida ishtirokidan kelib chiqadigan talablari taomillar davrida noaniq tavsiflanadi. Garchi muassislar ishni qo'zg'ata olmasalar-da, ish qo'zg'atilgandan keyin ularning talablari kreditorlar talablari reestriga kiritiladi, ular talablari oxirgi navbatlarda qanoatlantiriladi. Ko'pincha ushbu holatda qarzdor moliyaviy ahvoli salbiy tomonga o'zgarishi va bankrotlik ishi qo'zg'atilgunga qadar bo'lgan jarayonlarda ta'sischilarning faoliyati sust bo'lgan va ular korporativ boshqaruvda lozim darajada harakat qilmagan, deya baholanadi. Ammo to'lovga qobiliyatsizlik obyektiv sa-

bablarga ko'ra paydo bo'lishi va muassising qarzdorlik holati kelib chiqishiga aloqasi bo'lmasligi mumkin. Shuningdek, qarzdor sog'lomlashtirish imkoni mavjudligi nuqtai nazaridan, nima uchun qarzdor muassislarda ishni qo'zg'atish tashabbusi bo'lmasligi kerak. Olib borilgan tadqiqotlarda intellektual kapitalning ustav fondiga qo'yilishi bankrotlik jarayonida ularni qaytarib olish darajasi yuqoriligi isbotlangan [15, 21-32-b.].

AQSh qonunchiligi bo'yicha qarzdorni rehabilitatsiya qilish uchun dastlab savdo munosabatlaridan kelib chiqqan qarzdorliklarni bartaraf etish va ushbu qarzlarni ustuvor ekanligi belgilangan. Belgiya qonunchiligiga ko'ra, ta'minlangan talablar bo'yicha kreditor ishni qo'zg'atishda ham, ishning yakunida ham ustun mavqega ega bo'ladi. [16, 772-799-b.].

Qozog'iston Respublikasi "Reabilitatsiya va bankrotlik to'g'risida"gi Qonunining 51-moddasida qarzdor yoki kreditorning rehabilitatsiya taomilini qo'llash haqida sudga murojaat qilishi uchun asos – qarzdorning vaqtincha to'lovga qobiliyatsizligi deb ko'rsatilgan. Unga ko'ra, agar ariza topshirilgan sanada quyidagi holatlardan biri yoki bir nechitasi mavjud bo'lsa, to'lovga qobiliyatsizlik vaqtinchalik deb e'tirof etiladi:

1) kreditorlar oldidagi hayot va sog'liqqa yetkazilgan zararni qoplash, alimentni undirish, ish haqi va mehnat shartnomalari bo'yicha kompensatsiya to'lash, davlat ijtimoiy sug'urta fondiga ijtimoiy badallar bo'yicha qarzlarni to'lash, majburiy pensiya badallari va majburiy professional pensiya badallari, ijtimoiy tibbiy sug'urtaga majburiy ajratmalar va (yoki) badallar, shuningdek, ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari uchun mualliflik haqlari bo'yicha talablar ularni bajarish muddati to'lgan kundan boshlab uch oy ichida bajarilmasa;

2) boshqa kreditorlar oldidagi majburiyatlar ularni bajarish muddati to'lgan kundan boshlab to'rt oy ichida bajarilmagan bo'lsa.

Avstraliyada qanday qarz bo'lishidan qat'i nazar, uni qoplash to'lovga qobiliyatsizlik bevosita vujudga kelishida aybdor bo'lgan direktor va boshqa boshqaruvchilarga yuklanadi [17, 409-434-b.].

Niderlandiya qonunchiligiga ko'ra, ishtirokchilar o'rtasidagi nizolarni hal qilishda talablarning turi va miqdori, ularning qarzdor mol-mulkidan ortiq bo'lish va bo'lmasligi ahamiyatga ega [18, 360-378-b.]. To'lovga qobiliyatsizlik holatini aniqlash o'ziga xos testlar orqali aniqlanadi va unda barcha qarzlilar ko'rsatiladi [19, 59-72-b.]. Shuningdek, M. Masnika va J. Krushalak-Yankovskalar iste'molchilar bankrotligida qarzdorlik shakllari alohida belgilanishi lozimligini ta'kidlaydi [20, 25-31-b.]. Demak, qarzdorlik turlari, ularning ishini qo'zg'atishda inobatga olinishi, keyingi taomillar davrida qaysi qarzlarning ustun bo'lishi kerakligi qonun chiqaruvchi tomonidan alohida tartibga solinishi lozim.

Xulosalar

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, ayrim davlatlar (Yaponiya, Koreya, Norvegiya, Finlandiya, Qozog'iston) qonunchiligiga ko'ra, to'lovga qobiliyatsizlikni bartaraf etish bo'yicha sudda ikki xil ish ko'riladi: bankrotlik to'g'risidagi ish va reabilitatsiya to'g'risidagi ish. Reabilitatsiya ishini qo'zg'atish va unga asos bo'ladigan talablar masalasi garchi O'zbekiston qonunchiligiga hali kirib kelmagan bo'lsa-da, sudlarda ikki xil ishning (reabilitatsiya va bankrotlik) ko'rilishi protsessual ish hajmi va xarajatlarni kamaytiradi. Reabilitatsiya ishi tadbirkorlar tomonidan ularni qo'llab-quvvatlovchi mexanizm sifatida qaraladi.

Yuqoridagi fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, bankrotlik ishi ikkilamchi talablar (neustoyka, jarima, kompensatsiya, boy berilgan foyda, rag'batlantirish pullari va boshqalar) asosida qo'zg'atilmaydi.

REFERENCES

1. Vaccari E. Promoting fairness in English insolvency valuation cases. *International Insolvency Review*, 2020, vol. 29, iss. 2, pp. 285-312. DOI: 10.1002/iir.1382/.
2. Bolshoy akademicheskiy slovar russkogo yazika [Big academic dictionary of the Russian language]. St. Petersburg, Nauka Publ., 2009, vol. 12, p. 315.
3. Novoselova L.A. Protsenti po denejnim obyazatelstvam [Interest on monetary obligations]. 2nd ed. Moscow, Statute, 2003, p. 24.
4. Lunts L.A. Dengi i denejnie obyazatelstva v grajdanskom prave [Money and monetary obligations in civil law]. Moscow, 1999, p. 155.
5. Arbitrajnoe upravlenie: teoriya i praktika [Arbitration management: theory and practice]. General ed. V.V. Golubova. Moscow, Statute, 2000, p. 62.
6. Beklenisheva I.V. Ponyatie grajdansko-pravovogo dogovora (sravnitelno-pravovoe issledovanie) [The concept of a civil law contract (comparative legal research)], Abstract of PhD thesis. Yekaterinburg, 2004, p. 4.
7. Borisenkova T.V. Sootnoshenie chasntih i obshih interesov pri pravovom regulirovanii bankrotstva yuridicheskix lits [The ratio of private and common interests in the legal regulation of bankruptcy of legal entities]. PhD thesis. Moscow, 2008, p. 29.
8. Braginskiy M.I., Vitryanskiy V.V. Dogovornoe pravo [Contract law]. Book 1. General provisions. 2nd edition. Moscow, 2000, p. 22.
9. Xvan L.B. Soliq huquqi [Tax law]. Tashkent, Konsauditanform Publ., 2001, p. 19.
10. Mahkamov O.M. Soliq va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlashning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlarini [Criminal and criminological aspects of tax and other obligatory tax evasion]. PhD thesis. Tashkent, 2017, p. 20.

11. Izvekov S.S. Osobennosti pravovogo rejima nalogooblojeniya pri nesostoyatelnosti (bankrotstva) organizatsii [Features of the legal regime of taxation in case of insolvency (bankruptcy) of the organization]. PhD thesis. Yekaterinburg, 2018, p. 19.
12. Telyukina M.V. Osnovi konkursnogo prava [Fundamentals of Competition Law]. Moscow, 2004, pp. 135-192.
13. Ibratova F.Z. Tadbirkorlik subyektlarini bankrot deb topishning fuqarolik-huquqiy muammolari [Civil law problems of bankruptcy of business entities]. Doctor's degree dissertation. Tashkent, 2021, pp. 26-27.
14. Shahdadi K.M., Rostamy A.A.A., Sharif S.J.S., Ranjbar M.H. Intellectual capital, liquidity, and bankruptcy likelihood. *Journal of Corporate Accounting & Finance*, 2020, vol. 31, iss. 4, pp. 21-32. DOI: 10.1002/jcaf.22460/.
15. Ellias J.A. Bankruptcy Claims Trading. *Journal of Empirical Legal Studies*, 2018, vol. 15, iss. 4, pp. 772-799. DOI: 10.1111/jels.12204/.
16. Brothie J., Morrison D. Insolvent trading and voluntary administration in Australia: economic winners and losers? *Accounting & Finance*, 2017, vol. 60, iss. 1, pp. 409-434. DOI: 10.1111/acfi.12319/.
17. Ruben Hollemans, Gijs van Dijck. "Come and talk": The insolvency judge as de-escalator. *International Insolvency Review*, 2020, vol. 29, iss. 3, pp. 360-378. DOI: 10.1002/iir.1388/.
18. Margret J.E. Insolvency and tests of insolvency: an analysis of the "Balance Sheet" and "Cashflow". *Australian Accounting Review*, 2008, no. 12 (28), pp. 59-72. DOI: 10.1111/j.1835-2561.2002.tb00204.x/.
19. Maśnicka M., Krucalak-Jankowska J. Evolution of consumer bankruptcy in Poland: A chance for a new life for insolvent debtors? *International Insolvency Review*, 2022, Early View, pp. 25-31. DOI: 10.1002/iir.1457/.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

3 / 2022

BOSH MUHARRIR:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor,
y.f.d., dotsent

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ikrom Ergashev

Ilmiy boshqarma boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha
falsafa doktori, dotsent – bosh muharrir o'rinbosari

Mas'ul muharrir: D. Xudoynazarov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, K. Abduvaliyeva,
Y. Yarmolik, F. Muhammadiyeva, Sh. Yusupova

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Web-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

E-mail: tn.tdyu@mail.ru

Obuna indeksi: 1387.

Jurnal 19.07.2022-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli 23,28 b.t. Adadi: 100.

Buyurtma raqami: 47.

TDYU tipografiyasida chop etildi.